**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK: 657:336.7 (575.1)*

**To’ychiyeva Dilafro’z Farxod qizi**

# BANKLARDA QIMMATLI QOG‘OZLAR HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mutaxassislik: 5A230901– «Buxgalteriya hisobi» (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A S I YA**

**Ilmiy rahbar: dots. D.A.Sativaldiyeva**

**Toshkent – 2021**

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida tijor banklarida qimmatli qog'ozlar hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatl tadqiq qilingan, ularni amaliyoti chuqur o'rganilgan hamda uni moliyav hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tak hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

This master's dissertation explores the specifics of the formation of priva capital in businesses in the digital economy, in particular, the calculation of targ revenues, in-depth study of foreign experience and scientific proposals ar practical recommendations for its improvement on the basis of internation financial reporting standards.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dastlabl himoyadan o'tgan: «__» - sonli bayonnoma «__»___________2021 yil.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Ilmiy rahbar: | dots. D.Sativaldieva | ____ imzo | 29.06.2021 sana |
| Magistr: | D.F.Tuychieva | ____ imzo | 28.06.202 sana |

**"Himoyaga tavsiya etiladi"**

"Buxgalteriya hisobi " kafedrasi

mudiri, dots. Abdusalomova N.B.

_____________

"_____" iyun 2021 yil

Himoya 2021 yil "29" iyun soat 14:00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

Mundarija


**Kirish...** **4**

**I BOB. Paqamli iqtisodiyot sharoitida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar hisobi va auditini tashkil qilishning nazariy asoslari...8**

1.1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning mazmuni va mohiyati ... 8

1.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari ... 14

1.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar auditini tashkil qilishning uslubiy asoslari ... 16

1-bob bo'yicha xulosa. ... 20

**II BOB. «Ifinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlarning buxgalteriya hisobi amaliyoti va uni takomillashtirish ... 22**

2.1. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va ularning hisobi ... 22

2.2. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialining ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi ... 35

2.3. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlar hisobi va uni takomillashtirish ... 40

2-bob bo'yicha xulosa ... 44

**III BOB. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari auditi va uni takomillashtirish ... 46**

3.1. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning auditini o'tkazishda axborot manbalarining shakllanishi ... 46

3.2. «Infinbank» xususiy bankning Zangiota filialida qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish tartibi va uni mukammallashtirish ... 51

3-bob bo'yicha xulosa. ... 55

**Xulosa va takliflar ... 57**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ... 60**

## Kirish

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha —Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;[1] degan edi, o‘z ma’ruzasida.

Albatta tijorat banklari uctav kapitalini ko‘paytirish uchun qo‘shimcha emissiyasini chiqarishda qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha ham qonuniy va uslubiy asoslarni takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab oldilar. Bunda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish bilan bog‘liq xarajatlarning buxgalteriya hisobi to‘g‘ri yuritish va ularning auditini tashkil etish, nazorat qilish katta e’tiborda bo‘ldi. Natijada, qimmatli qog‘ozlar emissiyasini amalga oshirish va ularni joylashtirish xarajatlari hisobini xalqaro standartlari talablari darajasiga ko‘tarish muammolari vujudga keldi. Ushbu muammolarning echimi mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bartaraf etilgan bo‘lsada, lekin bugungi kunda to‘laligicha o‘z echimiga ega bo‘lmaganligi sababli ushbu mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini ko‘rsatdi. YUqorida bayon qilinganlarning barchasi mazkur magistrlik dissertatsiya ishning dolzarbligini, uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.